

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**GERMENEVTIKA VA TASAVVUF FALSAFASI
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lif sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassislik: 70220503 – Tasavvuf germenevtikasi

TOSHKENT – 2022

ДОКУМЕНТЫ МОЛДАВСКОГО
ПОЛИТИЧЕСКОГО ТЕАТРА ВЪЕДОВСТВИЯ
И СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ

Сборник документов

Министерства культуры

Министерства спорта

ИЗДАНИЕ РЕДАКЦИИ АКАДЕМИЧЕСКОГО
ИССЛЕДОВАНИЯ О ДИСТАНЦИИ

«Документы по истории политической
жизни и общественной деятельности
бюро политического театра „Въезд“»

документы по истории
политической жизни и
общественной деятельности

Б. Григорьев
С. А. Смирнов

Fan/modul kodi GTVF1108		O'quv yili 2022-2023	Semestr 1-2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)	
	“Germenevtika va tasavvuf falsafasi”	96	144	240	
2.	I. Fanning mazmuni				
	<p>“Germenevtika va tasavvuf falsafasi” fanining asosiy maqsad va vazifalari tasavvuf falsafasining muammolari haqida umumiy ma'lumotlar berish va ularni tushuntirish va talqin etishda germenevtik metodni qo'llashdan iborat.</p> <p>Tasavvuf ta'lomitini tushunish va tushuntirishda germenevtikadan metodologiya va falsafiy metod sifatida foydalanish, tasavvuf falsafasi bilan bog'liq barcha masalalarga germenevtik yondashishdan iborat.</p> <p>“Germenevtika va tasavvuf falsafasi” fanining sharqshunos-faylasuflar, tarixchilar, filologlar va manbashunos mutaxassislar tayyorlanayotgan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida joriy qilinishi birinchi galda bu fanning zarurligini belgilaydi. Zero, bu fan talabalarning Sharq va qo'shimcha ravishda, G'arb tillarini bilishlari tufayli samarali yo'lga qo'yilish imkoniga ega.</p> <p>Bo'lajak tasavvufshunos, faylasuf va tarixchi-manbashunos mutaxassislarini</p> <ul style="list-style-type: none"> - falsafiy metod va metodologiyalar rivojlanishidagi asosiy bosqichlarga oid ma'lumotga ega bo'lish; - falsafiy tafakkurning o'ziga xosligi va tamoyillari, fanlararo yondashishdan foydalanish; - Tasavvuf falsafasining umuminsoniy va ma'rifiy mohiyatini tadqiq etish va o'chib berish; - Tasavvuf falsafasini germenevtik tahlil va talqin etish; - Tasavvuf ta'lomitining ma'naviy-axloqiy jihatlarini zamonaviy tadqiqot usullari vositasida germenevtik tahlil qilish; - Tasavvuf ta'lomitini bilishda ob'ektiv metodologik yondoshuv malakalarini hosil qilish; - mustaqil fikrlash va ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini hosil qilish; - falsafiy-irfoniy tafakkurning turli davr va mintaqalardagi rivojlanish tendensiyalarini tushuntirish; - Tasavvuf ta'lomitini bilishning ilmiy asoslarini falsafiy idrok etishga o'rgatish; - tasavvufiy bilimlarning germenevtik evolyusiyasini tahlil qilish; - tasavvufiy germenevtikaning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish; - germenevtik tadqiqot ob'ekti bo'lgan tasavvufiy matn xususiyatini o'rganish; - tasavvuf ta'lomitini o'rganishda tushunish va tushuntirish uziyiyligini tahlil qilish; - tushunishning har qanday holati “germenevtik doira” asosida amalga oshishini 				

asoslash;

- tasavvufiy asarlarni tahlil qilish orqali falsafiy tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- tasavvuf falsafasini tushunish va tushuntirishda germenevtik yondashuvning o'rni va ahamiyatini ochib berish

"Germenevtika va tasavvuf falsafasi" fanining asosiy vazifalarini tashkil etadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" faniga kirish.

Germenevtika – metodologiya va falsafiy metod sifatida. Tasavvuf germenevtikasi. "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" fanining maqsad va vazifalari

"Tasavvuf ilmi" va "tasavvuf ta'limoti" tushunchalari. Uning umumiy qurilishiga berilgan ta'riflar (ilm, tariqat, mazhab, maktab, maslak, ta'limot...).

Tasavvufning alohida fan (ilm) sifatida e'lon qilinishi va e'tirof etilishida Hakim at-Termiziyy, Abu Ishoq Kalobodiy va Mustamliy Buxoriylarning o'rni. Tasavvufshunos oriflar: Hakim at-Termiziyy, Abu Ishoq Kalobodiy, Mustamliy Buxoriy, Abulqosim Qushayriy, Hujviriyy, Shayx Farididdin Attor, Xoja Muhammad Porso, Mavlono Jomiy, Alisher Navoyi, Mirzo Bedil.

Tasavvufning falsafiy asoslari: kalom falsafasi, Platon va neoplatonizm g'oyalari.

"Tasavvuf germenevtikasi" – tasavvufshunoslik fanining tarkibiy qismi. Germenevtika – tushunish falsafasi, tushuntirish san'ati. Falsafiy germenevtika va tasavvufiy germenevtika. Tasavvufni tushunish va tushuntirish muammolari. Tasavvuf germenevtikasi – tasavvufni tushunish va tushuntirish metodologiyasi. Tasavvufni tushuntirishda germenevtik yondashuvning ahamiyati. Tasavvufiy talqin masalasi. Tasavvufni tushunish va tushuntirishda sharh, talqin va ta'vilning o'rni. Hakim at-Termiziyy, Abo's-hoq Kalobodiy, Mustamliy Buxoriy, Muhammad G'azzoliy, Ibn al-Arabiyy, Jaloliddin Rumiy, Mahmud Shabustariy, Abdurahmon Jomiy – tasavvufiy germenevtika namoyandalari. Germenevtikaning tasavvuf falsafasini tushuntirishda metodologiya va falsafiy metod sifatidagi o'rni.

2- mavzu: "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Tasavvuf germenevtikasini o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati

"Germenevtika va tasavvuf falsafasi" fanining ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi. "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" – falsafa, "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" – tasavvuf falsafasi, "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" – dinshunoslik, "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" – din falsafasi, "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" – islomshunoslik, "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" – kalom ilmi, "Germenevtika va tasavvuf falsafasi" – mantiq ilmi, "Germenevtika

va tasavvuf falsafasi” – tilshunoslik, “Germenevtika va tasavvuf falsafasi” – matnshunoslik, “Germenevtika va tasavvuf falsafasi” – manbashunoslik, “Germenevtika va tasavvuf falsafasi” – adabiyotshunoslik, “Germenevtika va tasavvuf falsafasi” – tarix, “Germenevtika va tasavvuf falsafasi” – etika va estetika.

Tasavvuf germenevtikasini o’rganishning bugungi kundagi nazariy va amaliy ahamiyati: tasavvuf falsafasini ilmiy tushunish masalasi; islom dininig falsafiy mohiyatinin anglash; diniy-falsafiy dunyoqarashni shakkantirish.

3-mavzu: Tasavvuf germenevtikasining turlari. Tafsiriy germenevtika va uning usullari: izohli tarjima, sharh, tafsir, ta’vil. Qiyosiy germenevtika va uning usullari: qiyos, induksiya, deduksiya. Talqiniy germenevtika va uning usullari: tahlil, tadqiq, talqin

Germenevtikaning tasavvufiy tushunchalarni izohlash va talqin etishdagи ahamiyati. Tasavvuf germenevtikasining turlari. Tafsiriy germenevtika va uning usullari: izohli tarjima, sharh, tafsir, ta’vil. Tafsiriy germenevtikaning asosan diniy matnlardagi ma’nolarni (masalan, Qur’oni karim oyatlari, Hadisi sharif) tushuntirishda qo’llanilishi. Qiyosiy germenevtika va uning usullari: qiyos, induksiya, deduksiya. Qiyosiy (komparativ) germenevtikaning irfoniy matnlarni tushuntirishdagi ahamiyati. Talqiniy germenevtika va uning usullari: tahlil, tadqiq, talqin. Talqiniy germenevtikaning tasavvuf falsafasini ilmiy tarzda tushuntirishdagi roli.

4-mavzu: Qur’oni karim – tasavvuf ta’limotining bosh manbasi. Qur’oni karimning irfoniy tafsirlari. Irfoniy tafsir maktablari va usullari

Tasavvuf ta’limotining bosh manbasi: Qur’oni karim. Hadisi sharif. Tasavvufning Qur’on va Sunnat bilan chambarchas bog’liqligi. Junayd Bag’dodiying bu haqdagi tavsiyasi.

Qur’oni karimning tasavvufiy (irfoniy) tafsirlari. Xoja Abdulloh Ansoriyning “Tafsiri Qur’on”-i. Tafsiri Meybadiy. Tasavvuf falsafasiga oid ilmiy asarlarda Qur’oni karim oyatlari. Tasavvuf falsafasiga oid ilmiy asarlarda Hadisi sharif. Irfoniy badiiy adabiyotda Qur’oni karim oyatlari. Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”sida Qur’on oyatlari. Xoja Hofiz Sheroziy g’azaliyotida Qur’on oyatlari va ularning tasavvufiy talqini.

**5-mavzu: Hadisi sharif – Tasavvufning ikkinchi manbasi.
Hadisi sharifning irfoniy talqini**

Tasavvuf ta’limotining ikkinchi manbasi: Hadisi sharif. Tasavvuf falsafasiga oid ilmiy asarlarda Hadisi sharif. Irfoniy badiiy adabiyotda Payg’ambar hadislari. Tasavvuf ahli tomonidan eng ko’p murojaat qilinadigan hadislari. Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”sida Rasululloh hadislari. Hadisi sharifning irfoniy talqini. Arba’in hadislari.

6-mavzu: Tasavvufning mumtoz germenevtik maktablari va zamonaviy germenevtik tadqiqot usullari

Xuroson va Mavarounnahr tasavvufi – yagona ma’naviy mintaqasi mahsuli. Xuroson va Mavarounnahr tasavvufidagi maktablar: Balx maktabi. Ibrohim Adham. Termiz maktabi. Hakim Termiziyy. Buxoro maktabi. Kalobodiy va Mustamliy Buxoriy. G‘aznin maktabi. Sanoiy G‘aznaviy. Nishopur maktabi. Shayx Farididdin Attor.

Hindiston tasavvuf maktabi – Xuroson va Mavarounnahr tasavvuf maktabining izdoshi. Hindistonda Haqshbandiya tariqati. Ahmad Sarhindiy (Imom Rabboniy) va uning Mujaddidiya shu'basi. Hindistonda Qalandariya va Malomatija tariqatlari. Mirzo Abdulqodir Bedil va Mirzo G‘olib Dehlaviy.

Arabiston yarim oroli va Irog tasavvufi. Makka maktabi. Basra maktabi. Bag‘dod maktabi.

Vizantiya va Ispaniya tasavvufi. Shayx ul-Akbar Muhyiddin ibn al-Arabiyning irfoniy ta’limoti.

Tasavvuf maktablari o‘rtasidagi umumiylilik va o‘ziga xosliklar.

Tasavvuf ta’limotining Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy va ma’naviy hayotidagi o‘rni. Haqshbandiya va Yassaviya ta’limotlarining o‘zbek xalqi mentillitetining shakllanishidagi o‘rni.

Tasavvuf falsafasiga oid eng muhim manbalar: Hakim at-Termiziyning “Xatm ul-avliyo”, Abu Ishoq Kalobodiyning “Kitob at-ta’arruf”, Mustamliy Buxoriyning “Sharh at-ta’arruf li mazhab at-tasavvuf”, Abulqosim Qushayriyning “Tabaqot us-so‘fiya”, Hujviriyning “Kashf ul-mahjub”, Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning “Ma’orif”, Abulmajd Sanoiyning “Hadiyat ul-hakika”, Shayx Shahobiddin Suhravardiyning “Avorif ul-ma’orif”, Muhyiddin Ibn al-Arabiyning “Fusus ul-hikam” va “Futuhoti Makkija”, Shayx Farididin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, “Mantiq ut-tayr”, “Ilohiynoma”, “Asrornoma”, “Javohir uz-zot”, Maylono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy”, “Fiyhi mo fiyhi”, “Maktabot”, Xoja Muhammad Porsoning “Fasl ul-xitob”, “Sharhi Fusus ul-hikam”, Xoja Ahror Valiyning “Malfuzot”, Maylono Abdurahmon Jomiyning “Hafahot ul-uns min hazarat il-quds”, “Ad-durrat ul-foxira”, “Lavoeh”, “Lavome”, “Sharhi rubo’iyot fi isboti vahdat al-vujud”, “Sharhi Fusus ul-hikam”, Alisher Havoiyning “Hasoyim ul-muhabbat”, “Lison ut-tayr”, Mirzo Abdulqodir Bedilning “Irfon”, “Tilismi hayrat”, “Ishorot va maktabot” nomli asarlari.

Tasavvuf falsafasini tushunishda zamonaviy germenevtik tadqiqotlarning ahamiyati. Evropa tasavvufshunoslik maktablarida germenevtik yondashuvning o‘rni..

O‘zbekiston tasavvufshunoslik maktabi (mustaqillik davri) va germenevtika.

Evropa mamlakatlari, Rossiya, Eron, Misr, Tojikiston va Turkiya tasavvufshunoslik maktablarida germenevtik yondashuv.

7-mavzu: “Tasavvuf”, “so‘fiy”, “mutasavvif” va “mustasvif” tushunchalarining falsafiy-irfoniy sharhi

“Tasavvuf” va “so‘fiy” so‘zlarining kelib chiqishi. “Tasavvuf” istilohining ta’rifi. “So‘fiy” istilohining ta’rifi. “So‘fiy” so‘zidan yasalgan boshqa istilohlar (“so‘fiya”, “mutasavvif”, “mutasavvifa”, “mustasvif”)ning sharhi. “So‘fiy” va “darvesh” tushunchalari. Tasavvuf namoyandalarining ushbu istilohlarga bergan ta’riflari. Ushbu istilohlarning turli diniy va ilmiy maktablar tomonidan berilgan ta’riflari.

“Mutasavvif” istilohining sharhi. “Mustasvif” istilohining sharhi. Mutasavvif va mustasvif kishilar o‘rtasudagi farqlarning qiyosiy tahlili.

8-mavzu: “Irfon”, “orif” va “ma‘rifat” tushunchalarining falsafiy-irfoniy sharhi

“Irfon”, “ma‘rifat”, “orif” so‘zlarining lug‘aviy ma’nosи. “Irfon” istilohining ta’rifi. “Orif” istilohining ta’rifi. “So‘fiy” va “orif” o‘rtasidagi farqlarning qiyosiy tahlili. Tasavvuf namoyandalarining ushbu istilohlarga bergan ta’riflari. Ushbu istilohlarning turli diniy va ilmiy maktablar tomonidan berilgan ta’riflari. Tasavvuf va irfon tushunchalari o‘rtasidagi farqlarning qiyosiy tahlili.

“Ma‘rifat” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nosи. “Ma‘rifat”ning tasavvuf falsafasida o‘zlikni anglash va Alloho ni ma‘rifat etishning asosiy usuli ekanligi.

9-mavzu: Shariat va Tariqat o‘rtasidagi munosabatlар talqini. Tasavvufda ma‘naviy-ruhiy kamolot bosqichlari: “Shariat”, “Tariqat”, “Ma‘rifat”, “Haqiqat” tushunchalarining falsafiy-irfoniy sharhi.

“Shariat” so‘zining sharhi. “Tariqat” so‘zining sharhi. Tasavvuf ahlining shariat ahliga nisbatan e’tirozi. Shariat ahlining tasavvuf ta’limotiga bo‘lgan turli salbiy munosabatlari. Tasavvuf va shariat ahli o‘rtasidagi ziddiyatlar. Tasavvufning shariat ahkomidan chekinishi. Shariat va tariqat ahli o‘rtasidagi g‘oyaviy kurashlar. “Qol” va “hol”, “Zohir ahli” va “botin ahli” tushunchalarining sharhi. Tasavvuf ahlining “hol ahli”, “botin ahli”, “ishq ahli”, “Haq ahli” deb atalishi. Tasavvuf ahli tomonidan shariat ahlining “zohir ahli”, ilm ahlining “qol ahli”, deb qaralishi. Zohirparast so‘fiylar. Tasavvufda tasavvuf tanqidi.

Tasavvufning shariat bilan murosasi. Bu haqda Xoja Abdulloh Ansoriy va Shayx Aziziddin Hasafiyning shariat va tariqat tushunchalariga bergan ta’riflari. Kalobodiy va Mustamliy – shariat va tariqat o‘rtasidagi ilk murosakorlar. Imom G‘azzoliyning shariat va tariqat o‘rtasida murosani yuzaga keltirishdagi o‘rnı.

Tasavvuf ta’limotida *Shariat bosqichi*: Qur’oni karim va Payg‘ambar Muhammad (sav) Sunnatiga ergashish. Farz va sunnat amallarni qat’iy bajarish. Shariat qonunlariga qat’iy amal qilish.

Tariqat bosqichi: murid tushish, murshiddan vazifa va ko‘rsatmalar olish, sayru sulukka kirishish, vazifalarni bajarish, xonaqoh odobiga rioyer qilish, nafsi ammora bilan kurashish, holot va maqomotlarni o‘tkazish.

Ma'rifat bosqichi: “Ma'rifat” tushunchasining sharhi. So‘fiylikdan oriflikka intilish, o‘zlikni anglash, Haqni anglash, irfon maqomiga erishish.

Haqiqat bosqichi: “Haqiqat” tushunchasining sharhi. O‘zlikdan kechish. Haqni topish, Haqqa taslim bo‘lish. Haqqa etishish.

10-mavzu: Tasavvufda “Sukr” va “Sahv” yo‘nalishlari. “Sukr” va “Sahv” tushunchalarining falsafiy-irfoniy sharhi

Tasavvufda “Sukr” va “Sahv” yo‘nalishlari. Boyazid Bistomiy va uning “Sukr” – mastlik yo‘nalishi. Sukr yo‘nalishida “vajd” va “jazba” holatlari. Sukr yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari. Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Robiya Basriy, Aynulquzzot Hamadoniy, Hasimiy, Boborahim Mashrab – Sukr yo‘nalishi namoyandalari.

Junayd Bag‘dodiy va uning “Sahv” – hushyorlik yo‘nalishi. Sahv yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari. Sahv yo‘nalishida Qur’on va Sunnatga qat’iy rioya qilish tamoyili. Junayd Bag‘dodiyning bu haqdagi ko‘rsatmalar. Xojagon-Haqshbandiya tariqati – Sahv yo‘nalishiga asoslangan ta’limot. Shayx Abo‘said Abulkayr, Xoja Abdulloh Ansoriy, Imom Muhammad G‘azzoliy, Mavlono Abdurahmon Jomiy, So‘fi Allohyor – Sahv yo‘nalishi namoyandalari.

Tasavvufda “Sukr” yo‘nalishining “Sahv” yo‘nalishi namoyandalari tomonidan rad etilishi. “Shathiyot” tushunchasi. Boyazid Bistomiying “Subhaniy, subhaniy, mo a‘zam sha’niy” qavlining izohi. “Hulul va ittihod” g‘oyasining asl mazmuni. Mansur Hallojning fojiali qissasi. “Anal-Haq” sharhi.

So‘fiylarning so‘zlarini “ta‘vil” orqali tushunish prinsipi. Tasavvufdag‘i tarkidunyochilik (asketizm)ning rad etilishi. Tasavvufdag‘i oila qurmaslikning rad etilishi. Tasavvufdag‘i raqs va samo’ masalasi tahlili. Mavlaviya tariqatida raqs va samo’ning o‘rnii. So‘fiyona raqsning ramziy ma’nolari. Raqs va samo’ning rad etilishi. Haqshbandiya ta’limotida Mansur Halloj va raqs va samo’ masalalariga munosabat tahlili.

11-mavzu: Xonaqoh odobiga oid tushunchalar (“Xonaqoh”, “murshid” (“pir”), “murid”, “ravajjuh”, “robitai murshid”, “vazifa”, “zikr”, “chilla”, “xirqa”...) ning falsafiy-irfoniy sharhi. Xojagon-Naqshbandiya tariqatidagi 11 usul (rash`ha)ning germenevtik talqini

“Tariqat” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. “Solik”, “suluk” va “maslak” so‘zlarining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. Tasavvuf ulug‘larining ushbu tushunchalarga bergen ta’riflari.

“Xonaqoh” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. Xonaqoh odobi (xonaqoh institutining axloq kodeksi). -

“Pir” – “murshid” – “shayx” istilohlarining sharhi. Pir (murshid, shayx)ning vazifasi. Pir (murshid, shayx)ning sifat va alomatlari. Karomat. “Karomat”ning lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. Karomatning mohiyati. Pir(murshid)ning murid tanlash va muridni sinovdan o‘tkazish usullari. Tavajjuh (Pirning muridga qaratilgan diqqat-e’tibori).

“Xirqa” so‘zi va istilohining sharhi. Xirqaning turlari: irodat xirqasi; tabarruk (intisob, nisbat) xirqa. Xirqa kiyish odobi (tartibi). Xirqa kiyishning mazmun-mohiyati. Xirqa yondirish sababi.

“Murid” istilohining sharhi. Murid (solik)ning vazifalari. Sidq va ixlos (Muridning Pirga bo‘lgan hurmat va muhabbat). Xizmat (Muridning Pir tomonidan berilgan vazifalarni bekam-ko‘st bajarishi).

Taslim darajalari: Fano fish-shayx: Muridning o‘z inon-ixtiyorini Murshidga topshirishi – taslim maqomi. Fano fiy Alloh. Muridning Alloh hukmiga taslim bo‘lishi.

Xonaqohda zikr talqini. Zikrning turlari: “zikri xafiy” va “zikri jahriy” sharhi. Qodiriya, Maylaviya va Yassaviya tariqatlarida zikri jahriy. Xojagon-Haqshbandiya tariqatida zikri xafiy.

Tasavvuf asketizmi: xilvat va chilla o‘tirish (go‘shanishinlik).

Xojagon-Haqshbandiya ta’limotining nazariy asoslari: 11 rashha (usul). “Zikri xafiy” va uning talqini. “Dil ba Yor, dast ba kor” shiori. Zohirda xalq bilan, botinda Haq bilan bo‘lish tamoyili.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy “Vasiyatnama”sining sharhi. Xoja Bahouddin Haqshband tabarruk so‘zlarining sharhi. Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy va Abdurahmon Jomiyning naqshbandiylikka oid asarlaridan sharhlar.

12-mavzu: Sayru suluk jarayoni: “Holot” ning germenevtik talqini

Solik (murid)da sayru suluk jarayonida yuz beradigan holatlar (holot). Holotning asosiy kategoriyalari: muroqaba, qurb, muhabbat, xavf, rajo, shavq, uns, itminon, mushohada, yaqin. Ularning sharhi. Holotning o‘zgaruvchanligi. Holot – solik ruhiyatida vujudga keladigan va ma’lum vaqtgacha davom etadigan ruhiy hodisa. Kubraviya tariqatining “Latoyif” nazariyasida ranglar va solik ruhiyatidagi o‘zgarishlar.

13-mavzu: Sayru suluk jarayoni: “Maqomot” ning germenevtik talqini

“Solik” va “suluk” istilohlaring sharhi. Sayru suluk – so‘fiy yo‘li.

“Maqom” va “maqomot” istilohlarining sharhi. Etti maqom: tavba, vara’, zuhd, faqr, sabr, tavakkul, rizo. Ularning sharhi. Maqomlar sonining turli tasavvufiy tariqatlarda turlicha ko‘rsatilishi. “Maqomot”ning muayyan davrgacha davomiyligi.

“Maqomot”ning manzillar va vodiylarga qiyoslanishi. Abdulloh Ansoriy va uning “manzil”lari. Vodiylar – Attor va Havoiy talqinidagi maqomot.

14-mavzu: “Illohiy ishq” nazariyasining germenevtik talqini

“Ishq” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nosи. “Muhabbat” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nosи. Tasavvufda “Illohiy ishq” tushunchasi. “Illohiy ishq” oshiqona tasavvuf namoyandalari talqinida. Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Robiya Basriy, Aynulquzzot, Hasimiy, Mashrab – Illohiy ishq g‘oyasi tarafdarlar. Mustamliy Buxoriyning “ishq” va “muhabbat” tushunchalariga bergen ta’rifi.

Ilohiy ishqning Sharq she'riyatidagi badiiy talqini. Attor, Rumiy, Hofiz Sheroziy, Jomiy, Havoiy, Bedil, Mashrab, Mirzo G'olib – Ilohiy ishq kuychilar.

15-mavzu: Tasavvuf ontologiyasi (Borliq falsafasi). Olam(Borliq)ning yaralishi. “Vahdat ul-vujud” falsafasining germenevtik talqini

Tasavvuf ontologiyasining o'ziga xosligi. Tasavvuf ontologiyasining islom teologiyasi asosida qurilgani. “Vahdat ul-vujud” so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nosining sharhi. Tasavvufda Vahdat ul-vujud falsafasining shakllanishi va rivojlanishi. Ibn al-Arabiy – Vahdat ul-vujud falsafasining asoschisi. Vahdat ul-vujud – tasavvuf ontologiyasi (Borliq falsafasi)ning asl mazmuni. Vahdat ul-vujudning germenevtik talqini.

Vahdat ul-vujud falsafasining mohiyati. Vahdat ul-vujud va G'arb panteizmi. Vahdat ul-vujud falsafasining Sharq va G'arb falsafiy tafakkuriga ta'siri. Vahdat ul-vujud – teologik-falsafiy ta'lomit.

Mashhur vahdat ul-vujudchi mutafakkirlar – Ibn al-Arabiy izdoshlari: Rumiy, Sadriddin Qunaviy, Faxriddin Iroqiy, Abdurazzoq Koshoniy, Dovud Qaysariy, Xoja Muhammad Porso, Mavlono Abdurahmon Jomiy, Alisher Havoiy, Mirzo Abdulqodir Bedilning bu boradagi qarashlarining qiyosiy tahlili.

16-mavzu: Olam(Borliq)ning yaralishi: “A`yon sobita” tushunchasining falsafiy-irfoniy sharhi

“Olam” va “Borliq” (“Vujud”) tushunchalari sharhi. Ular o'rtasidagi umumiylilik va xususiylik talqini. Olamning yaralishi masalasiga germenevtik yo'ndoshuv. Olam – Borliqning yaralishining germenevtik talqini. Vahdat ul-vujud falsafasi doirasida “A`yon”, “Ta`ayyun” “A`yon sobita” tushunchalarining falsafiy-irfoniy sharhi. “A`yon sobita” haqidagi nazariyaning germenevtik talqini. “A`yon sobita” Alloh ilmidagi sobit va ustuvor tushunchalarning o'zgarmasligi. “A`yon sobita” borliqning Xudo ilmidagi loyihibiy (g'oya shaklida) ko`rinishi ekanligini germenevtik tarzda tushuntirish.

17-mavzu: Olam(Borliq)ning yaralishi: “Ilohiy tajalliy” nazariyasining germenevtik talqini

Tasavvuf ontologiyasida Olam(Borliq)ning Ilohiy tajalliy orqali bor bo'lishi (moddiy ko'rinishga ega bo'lishi). “Ilohiy tajalliy”ning ikki “ta`ayyun” (jilolanib ko`rinish) orqali besh hazrat (daraja, bosqich)da borliqqa bosqichma-bosqich yoyilishi va olamning moddiy ko'rinishga ega bo'lishi. “Ilohiy tajalliy” nazariyasining germenevtik talqini.

18-mavzu: Olam(Borliq)ning yaralishi: “Hazaroti xams” nazariyasining germenevtik talqini

Vahdat ul-vujud falsafasi doirasida “Hazaroti xams” (besh bosqich) nazariyasining germenevtik talqini. Borliqning bor bo'lishi jarayonidagi “Ilohiy

tajalliy”ning besh bosqichda zuhur etishi (tanazzul etishi – pastga qarab yoyilib ketishi). Har bir bosqichning germenevtik talqini. “Hazaroti xams” bosqichlarining germenevtik talqini. “Hazrati Insoni Komol” – barcha bosqichlarning xulosasi.

19-mavzu: “Vahdati shuhud” nazariyasining germenevtik talqini

Muhyiddin Ibn al-Arabi va Vahdat ul-vujud falsafasining muxoliflari.

“Vahdati mayjud” nazariyasining germenevtik talqini. “Vahdati shuhud” nazariyasining vujudga kelishi, uning asl mazmun-mohiyati. “Vahdati shuhud” nazariyasining “Vahdat ul-vujud” falsafasidan kelib chiqishi. Naqshbandiya ta’limotida “Vahdati vujud” va “Vahdati shuhud” falsafasi. “Vahdati shuhud” nazariyasining germenevtik talqini.

20-mavzu: Tasavvuf gnoseologiyasi. Irfon falsafasi. Ma`rifat nazariyasining germenevtik tahlili

Tasavvuf gnoseologiyasining o`ziga xos jihatlari. Tasavvuf falsafasining gnoseologik asoslari. Irfon falsafasi. Irfon falsafasining bosh mavzusi: Nafs ma`rifati va Rabb ma`rifati.

Orifona tasavvuf: tasavvufda irfon bosqichi. Orifona tasavvuf namoyandalari: Hakim at-Termizi, Shayx Fariduddin Attor, Ibn al-Arabi, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Faxriddin Iroqiy, Mavlono Abdurahmon Jomiy, Mirzo Abdulqodir Bedil va boshqalar.

21-mavzu: Tasavvuf gnoseologiyasida bilish (ma`rifat) ning bosqichlari: “Ilm ul-yaqiyn”, “Ayn ul-yaqiyn”, “Haqq ul-yaqiyn” tuchunchalarining falsafiy-irfoniy talqini

Tasavvuf gnoseologiyasida bilish (ma`rifat) ning uch bosqichi: Ilm ul-yaqiyn, Ayn ul-yaqiyn, Haqq ul-yaqiyn. “Yaqiyn” so`zining lug aviy ma`nosи. Qur`oni karimda “yaqiyn” so`zi. “Yaqiyn” so`zining istilohiy ma`nosи. Birinchi bosqich kitobiy, tahsiliy bilimga ishora, ikkinchi bosqich o`z ishtirokida tajribaviy bilimni anglatadi, uchinchi bosqich esa o`zi tajriba vositasiga aylanib, haqiqatni anglash bilimi. Ilmul yaqiyn – bilim oraqli ishonish (masalan, tushuntirib aytdilarki, olov issiqlir va u kuydiradi, men bunga ishondim). Aynul yaqiyn – to`liq ilmiy ishonch, tajriba qilib ko`rib ishonish (masalan: men sinab ko`rdim; olov haqiqatdan ham issiqlir va u kuydiradi). Haqqul yaqiyn – haqiqiy ishonch (masalan: men o`sim olovda yondim va olovning yondirish kuchi, xususiyatiga batamom ishondim). Bu – Haqqa yetish ilmi. “Ilm ul-yaqiyn”, “Ayn ul-yaqiyn”, “Haqq ul-yaqiyn” tuchunchalarining falsafiy-irfoniy talqini.

22-mavzu: Tasavvuf antropologiyasi. Tasavvuf falsafasida Inson mohiyati va uning asl javhari masalasining germenevtik talqini

Tasavvuf antropologiyasi (Inson falsafasi) ning o`ziga xos jihatlari.

Tasavvufda Inson falsafasi. Tasavvuf – insonshunoslik ilmi. Tasavvuf antropologiyasida Inson borlig'i masalasining germenevtik tahlili. Tasavvuf falsafasida Inson mohiyati va uning asl javhari (substansiyasi) masalasining germenevtik talqini

23-mavzu: Tasavvuf falsafasida Inson va Kayhon munosabatlari. “Olami kabir va Olami sag’ir”, “Valoyat va Hubuvvat” nazariyalarining germenevtik talqini

“Valoyat” va “Hubuvvat” so‘zlarining lug‘aviy ma’nosи. Hakim at-Termiziy ta’limotida “Valoyat” va “Hubuvvat” tushunchalarining falsafiy-irfoniy talqini. “Qalb” va “ro‘yat” so‘zlarining lug‘aviy ma’nosи. Hakim at-Termiziy ta’limotida “qalb” va “ro‘yat” tushunchalarining falsafiy-irfoniy talqini. “Hafs” va “ma’rifat” tushunchalarining talqini.

24-mavzu: “Insoni Komil” nazariyasining germenevtik talqini

Komil Inson g‘oyasining tasavvuf falsafasi va tasavvufiy adabiyotdagi o‘rni. Abdulkarim Feliy Komil Inson haqidagi fikrlari. Ibn al-Arabiyning Komil Inson haqidagi diniy-falsafiy konsepsiysi. Muhammad (sav) – Komil Inson timsoli.

Aziziddin Hasafiyning Komil Inson haqidagi diniy-falsafiy konsepsiysi. Aziziddin Hasafiyning “Insoni Komil” asari va uning mazmuni. Komillikka erishishning shart-sharoitlari.

Komil Inson g‘oyasining badiiy talqini. Attor, Rumiy, Hofiz, Jomiy va Navoiy ijodida Komil Inson timsoli.

III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tasavvufshunoslik faniga kirish. Tasavvufshunoslik fanining tarkibiy qismlari. Tasavvuf germenevtikasi fanining maqsad va vazifalari.
2. “Tasavvuf”, “so‘fiy”, “irfon” va “orif” tushunchalarining sharhi va ta’rifi.
3. Tasavvuf ta’limotining asosiy manbalari: Qur’oni karim va Hadisi sharif.
4. Tasavvufning diniy-falsafiy ta’limot sifatidagi umumiy tavfsifi. Tasavvuf ta’limotining vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanish bosqichlari.
5. Tasavvufning jug‘rofij (mintaqaviy) maktablari.
6. Shariat va tariqat. “Shariat” va “tariqat” tushunchalarining lug‘aviy hamda istilohiy ma’nolari, ularga berilgan ta’riflar.
7. Tasavvuf va islom dinidagi yo‘nalishlar, fiqhiy va aqidaviy mazhablar.
8. Tasavvuf ta’limotining g‘oyaviy yo‘nalishlari: “Sukr” va “sahv”.
9. Tasavvufning islom dini tomonidan rad etilgan g‘oyalari va tamoyillari.
10. Tariqat: maslakdosh so‘fiylar jamoasi (xonaqoh instituti).
11. Tasavvufning tariqat (silsila)lar va maktablarga bo‘linishi.

12. Tasavvufda ma'naviy-ruhiy kamolot bosqichlari: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat.
13. Sayru suluk jarayoni: Maqomot (manzillar) va Holot.
14. Tasavvufda "ishq" va "muhabbat" talqini. "Ilohiy ishq" tushunchasi.
15. Hakim at-Termiziy ta'limoti – tasavvufdag'i ilmiy-nazariy maktab
16. Vahdat ul-vujud falsafasi – tasavvuf ta'limotining bosh g'oyasi.
17. Tasavvufda Komil Inson g'oyasi.
18. Xojagon-Haqshbandiya ta'limotining nazariy asoslari.

Amaliy darslarni uyuştirish bo'yicha kafedraning professor va o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va yo'llanmalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza darslarida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan boyitadilar. Shuningdek, darslik, o'quv qo'llanmalar, dars yo'riqlari asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlanтирish.

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko'rsatmalardan foydalanshlari tavsiya etiladi:

- darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlaridan kurs mavzularini o'rganish;
- xat, hujjat, yozishmaga oid mavzularni o'zlashtirish;
- shartnoma tuzish, muzokara olib borish, yuqori darajadagi suhbatlarda ishtirok etish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Tasavvuf germenevtikasi" – tasavvuf ta'limotini tushunish va tushuntirish san'ati.
2. Tasavvufshunoslik – ilohiyotshunoslik va falsafa oralig'idagi fan sifatida.
3. Tasavvuf ta'limotida "Maqomot"ning germenevtik talqini.
4. Tasavvuf ta'limotida "Holot"ning germenevtik talqini.
5. "Tavba" maqomining sharhi.
6. "Fano" va "Baqo" tushunchalarining sharhi.
7. Rumiy va Ilohiy ishq masalasi.
8. Tasavvuf va Qur'oni karim.
9. Tasavvuf va Hadisi sharif.
10. Insoni komil nazariyasining germenevtik talqini.
11. "Olami sag'ir" tushunchasining sharhi.
12. "Olami kabir" tushunchasining sharhi.
13. Tasavvuf germenevtikasining asosiy metodlari.
14. Naqshbandiya ta'limotidagi 11 usul sharhi.

15. Tasavvuf ta'limotida "muhabbat" ("Ilohiy ishq") tushunchasining germenevtik talqini.
16. Attor va Havoiyda "Etti vodiy" tushunchasining sharhi.
17. Tasavvuf ta'limotida "qol" va "hol" tushunchalarining talqini.
18. Shayx Shahobiddin Suhravardiyning "Ishroq" falsafasining mazmun-mohiyati.
19. Tasavvufda Qur'on va Sunnatga ergashish masalasi.
20. Tasavvuf ta'limotida Vahdat ul-vujud falsafasining germenevtik talqini.
21. Tavhid – Vahdat ul-vujud falsafasining bosh g'oyasi.
22. Tasavvuf ta'limotida Insoni Komil g'oyasi.
23. Tasavvuf va badiiy talqin.
24. Alisher Havoiy ijodida tasavvuf g'oyalarining badiiy talqini..
25. Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"ida tasavvufiy g'oyalar.
26. Kalobodiyning "At-ta'arruf li mazhab at-tasavvuf" asari – tasavvuf germenevtikasi namunasi.
27. Najmaddin Kubroning "Latoyif" nazariyasi.
28. Komil Inson Ibi al-Arabiyl talqinida.
29. Aziziddin Nasafiyning Komil Insoni.
30. Tasavvuf she'riyati – irfon falsafasining badiiy talqini.
31. Irfon – tasavvufning bilish falsafasi.
32. Tasavvufda Ishroq falsafasi.
33. Tasavvufda "Sukr va "Sahv" yo`nalishlari.
34. Buxoro tasavvuf maktabi (Kalobodiy va Mustamliy).
35. Tasavvufda "Zikri xafiy" va "Zikri jahriy" amallari.
36. Tasavvuf falsafasida ramz va majozning o'rni.
37. Tasavvuf germenevtikasida "Ta`vil" tushunchasi.
38. So'fiy va orif o`rtasidagi farqlarning germenevtik tahlili.
39. "Shariat" va "Tariqat" so`zlarining sharhi.
40. Termiz tasavvufiy germenevtikasi maktabi.
41. Hakim at-Termiziyning irfoniy masalalarni tushuntirishdagi germenevtik usuli.
42. Tasavvuf germenevtikasida "Tafsir" usuli.
43. Tasavvuf germenevtikasida "Qiyos" usuli.
44. Tasavvuf germenevtikasida "Izohli tarjima" usuli.
45. "Zikr" istilohining germenevtik tahlili.
46. "Orif" so'zining sharhi.
47. "Irfon" so'zining sharhi.
48. "Ma'rifat" tushunchasining germenevtik talqini.
49. Mustamliy Buxoriyning germenevtik usuli.
50. Jomiyning "Ad-Durrat ul-foxira" asarida germenevtik usulning qo'llanilishi.
51. Tasavvuf va Irfon o`rtasidagi farqlar.
52. "A`yon" tushunchasining sharhi.
53. "A`yon" nazariyasining germenevtik talqini.
54. "Ilohiy tajalliy" nazariyasining germenevtik talqini.
55. "Hazaroti xams" nazariyasining germenevtik talqini.

56. Shariat va Tariqat o'rtasidagi umumiylilik va xususiylik.
57. "Vahdat ul-vujud" falsafasining germenevtik talqini.
58. "Vahdati shuhud" nazariyasining germenevtik talqini.
59. "Rizo" maqomimig sharhi.
60. "Tavakkul" maqomining sharhi.
61. Tasavvuf germenevtikasida "Sharh" usuli.
62. "Sabr" maqomining sharhi.
63. "Faqr" maqomining sharhi.
64. "Vara'" maqomining sharhi.maqomining sharhi.
65. "Muroqaba" holatining sharhi.
66. "Qurb" holatining sharhi.
67. "Muhabbat" holatining sharhi.
68. "Xavf" holatining sharhi.
69. "Rajo" holatining sharhi.
70. "Shavq" holatining sharhi.
71. "Uns" holatining sharhi.
72. "Itminon" holatining sharhi.
73. "Mushohada" holatining sharhi.
74. "Yaqiyn" holatining sharhi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlар, ijodiy ishlар tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Tasavvuf germenevtikasi bilan bog'liq bo'lgan turli xil ilmiy qarashlar va nazariyalar haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi* va ular haqida aniq **fikrlay olishi**;
- yirik faylasuf va tasavvufshunos olimlarining g'oya va konsepsiyalari bilan **tanishgan bo'lishi**;
- Tasavvuf falsafasining ontologik, gnoseologik va antropologik jihatlarini tushuntirib berishda germenevtik metoddan **foydalana olishi**;
- Markaziyo Osiyo mintaqasi falsafiy-irfoniy tafakkurini yoritgan manbalar, xususan, tasavvuf falsafasiga oid qo'lyozma asarlarni bilish, tarjima va tahlil qila olish **ko'nikmalariga ega bo'lishi**;
- ushbu fandan olgan bilimini amaliyotda tadbiq eta bilishi, manbalarda aksini topgan tasavvuf falsafasiga oid asarlarni to'g'ri tarjima va tahlil qila olish, ulardan o'zi uchun foydali xulosalar chiqara olishi, olgan bilimini ta'lim jarayoniga joriy qila olish **malakalariga ega bo'lishi lozim**.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishslash;
- taqdimotlarni qilish;

	<ul style="list-style-type: none"> • individual loyihalar;
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari</p> <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdulloyev A. Tasavvuf va uning namoyandalari. – Termiz, 2007. 2. Juzjoniy A.Sh. Tasavvuf va inson. – T.: “Adolat”, 2001. 3. Komilov, Najmuddin. Najmuddin Kubro. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1995. 4. Komilov, Najmuddin. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr”, “O‘zbekiston”, 2009. 5. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Ichingdagি ichingdadir. / Tarj. U.Hamdam. – T.: “Yozuvchi”, 1997. 6. Muxammadxdodjayev A. Gnoseologiya sufizma. – Dushanbe: Donish - 1990. – 116 str. 7. Polatov H, Mamatov M. Tasavvuf tarixidan lavhalar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2011. 8. Trimengen Dj. S. Sufiyskiye ordeni v islame. –M.: Sofiya ID Gelios, 2002. – 480 s. 9. Turar, Usmon. Tasavvuf tarixi. / Turk tilidan Nodirxon Hasan tarjimasi. – T.: “Istiqlol”, 1999. 10. Usmonov I. Tasavvuf. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent islam universiteti, 2012. 11. Xoja Abdulkholiq G‘ijduvoni. Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniy. – T.: “Yangi asr avlod”, 2003. 12. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. 2.Risolai validiyya. / Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriiddin Umrzoq, Hamidulloh Amin. – T.: “Adolat”, 2004. 13. Xolmo‘minov, Ja’far. Jomiy va vahdat ul-vujud ta’limoti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 14. Xolmo‘minov, Ja’far. Vahdat ul-vujud falsafasi va uning Naqshbandiya ta’limotiga ta’siri (Ibn al-Arabiyy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy va Mavlono Abdurahmon Jomiy qarashlari asosida). – T.: “Tafakkur”, 2020. 324 b. 15. Xolmo‘minov, Ja’far. Tasavvuf falsafasi. 1-qism: Tasavvuf ontologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 276 b. 16. Xolmo‘minov, Ja’far. Tasavvuf ontologiyasi. (Monografiya). – T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 190 b. 17. Xolmo‘minov, Ja’far. Qiyoziy tasavvufshunoslik. (Monografiya). – T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 266 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". –T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Mirziyoyev Sh. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". –T.: "O'zbekiston", 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.

Axborot manbalari:

1. islom.uz
2. muslim.uz
3. ziyouz.com

7. O'quv dasturi "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2022_ yil "___" _____ dagi "___" -sonli bayonnomasи bilan ma'qullangan.

O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022_- yil "30" 06 dagi "11" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ul:**

Xolmo'minov Ja'far Muhammadiyevich – TDSHU "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc).

9. **Taqrizchilar:**
Mirsodiq Is'hoqov – tarix fanlari doktori, professor, TDSHU, "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi" kafedrasi mudiri;
Ozodbek Xomutaliyev – TDSHU, "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi" kafedrasi o'qituvchisi.